

O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA ESKIRISH VA YANGILANISH JARAYONLARI

**Mohinur To'lanova Davlatbek Qizi**

*Andijon davlat pedagogika insitituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Nargiza Sattarova Oblanazarovna**

*Ilmiy rahbar: Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya kafedrası professori*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada o'zbek tili leksikasidagi eskirish va yangilanish jarayonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Istorizm, arxaizm, neologizm atamaları izohlangan. Ularga badiiy asarlardan misollar keltirilib, tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Til, eskirish, yangilanish, nomema, semema, atama, tarixiy, arxaizm, istorizm, neologizm, leksik, fonetik, lug'at, me'yor.*

PROCESSES OF OBJECTION AND UPDATE IN UZBEK LANGUAGE LEXICON

**Annotation:** *This article provides information about the processes of obsolescence and renewal in the lexicon of the Uzbek language. The terms historicism, archaism, neologism are explained. Examples of works of art were presented and analyzed.*

**Key words:** *Language, obsolescence, renewal, nomeme, sememe, term, historical, archaism, historicism, neologism, lexical, phonetic, dictionary, standard.*

ПРОЦЕССЫ ВОЗРАЖЕНИЯ И ОБНОВЛЕНИЯ В ЛЕКСИКОНЕ УЗБЕКСКОГО  
ЯЗЫКА

**Абстрактный:** *В данной статье представлена информация о процессах устаревания и обновления в лексике узбекского языка. Объясняются термины историзм, архаизм, неологизм. Были представлены и проанализированы примеры произведений искусства.*

**Ключевые слова:** *Язык, устаревание, обновление, номема, семема, термин, исторический, архаизм, историзм, неологизм, лексический, фонетический, словарный, стандартный.*

Ma'lumki, til katta bir tizim sifatida rivojlanib, sayqallanib, boyib yoki jamiyat a'zolari tomonidan yangilanib turish xususiyatiga ega. Tilning so'z boyliklari ma'lum jamiyat uchun xizmat qiladi, jamiyat a'zolari bilan birga yashaydi va ular foydalansagina o'z xususiyatini saqlab qoladi. Bilganimizdek, yurtimizda har sohada jadal islohotlar, o'zgarish-u yangilanishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, faol texnologiyalar miqyosidagi islohotlar sabab o'zbek tili ham boyib bormoqda. Yaqin besh yil ichida kirib kelgan so'zlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular tez fursatlarda o'zbek tili lug'at tarkibidan joy olishga ulgurdi. Har jamiyat va tuzumda turli davrlar, boshqaruv bo'lganligi bois til tarixida ham turli

xalq, millat vakillarining soʻzlari umumisteʼmol soʻzlarga aylandi. Til xazinasidagi bir qancha soʻzlar oʻz oʻrnini maʼlum bir sinonimlariga boʻshatib berdi, yaʼni isteʼmoldagi soʻzlarimiz oʻz shaklini oʻzgartirib, maʼnosini yoʻqotmagan holda hali hamon jamiyatga xizmat qilmoqda. Ayrim soʻzlar esa zamon yangilangan sayin oʻz shakl-u shamoyilini yoʻqotish bilan birga maʼnosidan ham ayrildi.

Bunday yangilanish va eskirish jarayonlari oʻzbek tili leksikasining oʻrganish obyektlaridan biri sanaladi. Eskirish va yangilanish jarayonlari oʻzining maʼlum turlariga ega. Ular: leksik istorizm, leksik arxaizm va leksik neologizm birliklaridir.

Leksik istorizmlar oʻtmish voqeligi boʻlgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Ular “tarixiy soʻzlar” deb ham ataladi. Oʻzbekiston buyuk tarixga ega boʻlishi bilan bir qatorda boshidan turli xonlik va boshqaruvlarni kechirgan. Shubhasiz, turli davrda turli soʻzlar va atamalardan foydalanilgan. Lekin bugungi kunda ushbu atamalar oʻz maʼno va shaklini butunlay yoʻqotgan. Aynan bu soʻzlar istorizmlar sanaladi.

Masalan: tanob – “Oldin ishlatilgan oʻlchov birligi. 17-asrda arab filologiyasi mualliflari tanob soʻzini qirq metrlik arqon sifatida bilishgan, Oʻrta Osiyo xonliklarida esa ushbu birlik oltmish gazdan oshmaydigan oʻlchov birligidir”. “Bogʻning sathini Salim uch yarim tanob, Fazliddin uch tanob moʻljalladi”. (Oybek. “Tanlangan asarlar”). Xalifa – “arabcha – oʻrinbosar, noib degan maʼnolarni anglatadi. Tarixda musulmon jamoasi va musulmon davlatining diniy hamda dunyoviy boshligʻi sifatida faoliyat yuritgan shaxs”. “Musulmonlar xalifasi Xorun ar-Rashid xalq hayotini oʻrganish uchun faqirona aylanib yursa, bir qassob qoʻyning bahosini soʻrabdi”. (“Xalifa, qassob, dono bolalar va odil hukm” hikoyasidan). Namunalardan shu narsa aʼyonki, bugungi kunda tanob hamda xalifa leksemasining ifoda plani (nomemasi) ham mazmun plani (sememasi) ham isteʼmoldan chiqib ketgan.

Demak, istorizmlarning muhim xususiyati shakl hamda mazmunning birgalikda yoʻqolishidir. Ammo tarixiy soʻzlarni bugungi kunda badiiy adabiyotda, tarixga oid ilmiy asar va darsliklarda uchratish mumkin. Ular uslubiy boʻyoqdorlikni oshirish, reallikni taʼminlash maqsadida badiiy asarlardan joy olgan. “Otam boʻlmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz – yaʼni maʼnaviy otam”. (A.Qodiriy “Oʻtgan kunlar”) Otaliq – “Kavkaz xalqlari, keltlar, arablar va boshqalarda badavlat xonadon egalari tomonidan farzandlarini tarbiyalash uchun vassallar yoki xizmatkorlarga berish”.

Leksik arxaizmlar – hozirgi paytda mavjud boʻlgan voqelikning eskirgan nomi yoki, aksincha, hozirgi tilda mavjud boʻlgan leksemaning eskirgan maʼnosi (sememasi). Lugʻat tarkibida oʻz maʼnosini saqlagan, lekin shaklidan voz kechgan soʻzlar anchagina. Yaʼni oʻz nomemasini boshqa bir nomemaga almashtirgan soʻzlar arxaizmlar hisoblanadi.

Arxaizmlar soʻzning almashinishi va yoki bir soʻzning maʼnoviy yangilanishi xususiyatiga koʻra ikki turli boʻladi:

\*Arxaizm leksema;

\*Arxaizm semema;

Bugungi kunda biz foydalanayotgan: xalq, lab, guvoh, askar, parol, cho'loq kabi qator so'zlarning o'tmishda: raiyat, dudoq, ayg'oqchi, cherik, o'ron, lang deya atalgani qiziq bo'lsa kerak-a!? Bu leksemalarning bir qanchasini badiiy asarlarda kelganini ko'rib chiqamiz:

“Raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim”. (“Temur tuzuklari” dan)

“Ul yurushta ma'hud o'ron alfazi “Toshkand” bila “Sayram” edi. Toshkand esa Sayram deyilgay, Sayram desa Toshkand”. (“Boburnoma” dan)

“Yo'lchining kuchli, erkak nafasini, dudoqlarida uning bo'sasining jonli olovini bir lahza sezdi” (Oybek “Qutlug' qon”)

“Cheriklar o'tadi janggohlar tomon” (X. Davron)

Yuqoridagi parchalarda kelgan raiyat, o'ron, dudoq, cherik kabi so'zlar hozirgi paytda mavjud bo'lgan voqelikning eski nomlaridir. Bular arxaizm leksemalarni vujudga keltiradi.

Hozirgi kunda mavjud bo'lgan leksemalar avval boshqa ma'nolarda ham qo'llangan bo'lishi mumkin. Misol uchun, g'azal – so'zi she'riy janrlardan birining nomi. Mumtoz adabiyotda qofiyali, hajman uch baytdan o'n to'qqiz baytgacha bo'ladi. Dastlab paydo bo'lganida esa u “ayollarni madh etish, ishq izhor etish” uchun xizmat qilgan. Keyinchalik mazmun doirasi kengayib, turli mavzularda yozila boshlangan.

Hattoki, so'zning shakli, ma'nosi ham o'zgaray faqatgina talaffuzi eskirishi ham mumkin. Bu esa fonetik arxaizmni vujudga keltiradi. Toshkent – O'zbekiston viloyatlaridan biri. Tarixda “Toshkand” tarzida talaffuz qilingan. Noshvoti – nokning bir navi, avval esa “noshpoti” ko'rinishida bo'lgan. “Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo'lmas”. (“Boburnoma” dan)

Fonetik arxaizm ko'proq olmoshlarda o'z aksini topadi: u-ul, bu-bul, shu-shul, o'sha-o'shal, ular-alar, menda-banda.

“Keltursa yuz baloni o'shal bevafo manga,

Kelsun, agar yuzumni evursam, balo manga”. (Bobur)

Leksik neologizmlar – tilda yangi paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'ini yo'qotmagan so'zlar. Zamon rivojlanishi bilan yangi atamalarning, yangi so'zlarning qo'shilishi natijasida o'zbek tili boyib bormoqda. So'zlashuvda faol ishlatilib kelinayotgan bu so'zlar, avvalo, ma'lum bir shaxsning nutqida paydo bo'ladi va keyinchalik ommaviylashib, umumiste'moldagi so'zlar tarkibiga qo'shila boshlaydi. Qator olimlar, tilshunoslar chetdan kirib kelayotgan so'zlarning o'zbekcha muqobillarini izlab ko'rgan, mavjudlarini o'zbekchalashtirgan. Ayrimlarining muqobillari esa nutqiy qulaylikka ega bo'lmaganligi sabab o'zgartirilmagan. Masalan, radio – ovoznigor, samolyot – uchoq, aeroport – tayyoragoh, aftobus – ko'p kursi, mamlakat – respublika singari so'zlar o'z muqobilini rad etib, yangi so'z (neologizm)lar bilan atalgan.

Mamlakatimizda yangi so'zlar va atamalarning kirib kelishi, o'zbek tilini boyitishi yaxshi, albatta. Lekin me'yordan oshib ketadigan darajada so'zlarning o'zlashishi, o'zbek tilida muqobili bo'la turib chet el so'zlaridan foydalanishimiz til taraqqiyotiga

salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Aytaylik, lider, kargo, stilist, barber, korzinka, shopping kabi so'zlarning o'zbek tilida muqobili bo'la turib ulardan foydalanmaymiz.

Lider – yetaklovchi, boshlovchi

Kargo – yuk puli

Stilist – pardozi

Barber – sartarosh

Shopping – kiyim olish, sotib olish.

Yuqoridagi so'zlar qatori juda ko'p. Tilimizda o'z muqobili bor, lekin ularni qo'llamaslik, chetdan kirgan so'zlardan me'yordan ortiq foydalanish, ularni iste'molga butunlay olib kirish bir qancha salbiy vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Shahar atroflarida, jamiyatdagi e'lonlar taxtasida yozilgan ma'lumotlar turli yod so'zlar bilan atalishi, rus va inglizcha so'zlarni aralashtirib qo'llash hodisalarining ko'payib borishi, bir qancha so'zlarning istorizmlar qatoriga kirib qolishi tilimizni butunlay yo'qotib yuborishga ham sabab bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Siz va biz kabi yosh filologlar bunga qarshi kurashishimiz, atrofimizdagi tilga bo'lgan munosabatga befarq bo'lmasligimiz darkor. Zero, ona tilimiz bizning milliy iftixorimiz. Undan Navoiylar, Boburlar-u Lutfiylar zo'r mahorat bilan foydalanib, sayqallab borganlar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. To'lanova, M., & Sotvoldiyev, D. (2023). "BOBURNOMA"DA O'SIMLIK VA HAYVONOT OLAMI TASVIRI. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(31)

2. To'lanova, M. (2024). "O'ZBEK VA RUS TILLARIDAGI MAQOLLARNING ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI". Interpretation and Researches, 1(23).

3. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / H. Jamolxonov. – T.: <<Talqin>>, 2005. – 272 b.

4. Berdialiyev Abduvali, Ermatov Ixtiyor. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Darslik. – T.: «TURON-IQBOL» nashriyoti, 2021. – 204 b.

5. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2009 – 391 b.